

ZAMONNI IFODALOVCHI GRAMMATIK SHAKLLAR ANNOTATSIYASIDA FE'L LEKSIK MA'NOSINING AHAMIYATI

Xonnazarov Elyor G'ofurovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti doktoranti

xonnazarov90@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tili korpuslarida zamonni ifodalovchi grammatik shakllarni annotatsiyalash jarayonida fe'l leksik ma'nosining ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, hozirgi davomli zamon grammatik shakllarining ayrim fe'l asoslari bilan qo'llanila olmasligi fe'llarning semantikasi bilan aloqadorlikda tushuntirilgan. -a (-y) shaklining hozirgi yoki kelasi zamon ma'nosini anglatishida fe'l leksik ma'nosining ta'siri misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: korpus, fe'l, zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, davomli zamon, grammatik shakl, kontekst, annotatsiya, nutq momenti, leksik ma'no.

ABSTRACT

This article provides information on the importance of the lexical meaning of the verb in the process of annotation of grammatical forms representing the tense in the Corps of the Uzbek language. In particular, the fact that the grammatical forms of the present continuous tense cannot be used with some verb bases is explained in connection with the semantics of verbs. The effect of the lexical meaning of the verb on the meaning of the present or future tense of the form -a (-y) is analyzed based on examples.

Keywords: corps, verb, tense, present tense, future tense, continuous tense, grammatical form, context, annotation, the moment of speech, lexical meaning.

KIRISH

Zamonni ifodalovchi grammatik shakllarni qabul qilishda va muayyan zamon ma'nosini anglatishda fe'l leksik ma'nosining ham ahamiyatga ega ekanligi jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham qayd qilinadi. Jahon tilshunosligida bu masala fe'llarni aspektual guruhlariga ajratish orqali hal qilinadi. Shu sababli zamon kategoriyasiga bag'ishlangan aksariyat ishlarda zamon aspekt bilan birgalikda o'rganiladi. Bunda grammatik aspekt deganda fe'l lug'aviy ma'nosidagi ma'lum bir semalarning uning zamonda qo'llanilishiga ta'siri tushuniladi. Davomiylik (progressive), tugallanganlik, natijaviylik (perfect) kabilar aspektual tasnif mezonlari sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonni aspektga bogʻlab oʻrgangan olimlardan biri Z. Vendler feʼllarning zamonga munosabat jihatdan oʻziga xos maʼnoviy farqlarga ega ekanligini aniqladi va ularni tasnifladi [13]. Keyinroq E.Bach, D.Dovti, M.Moens va M.Stedman kabi olimlar tomonidan ham zamon ifodalashda oʻziga xosligiga koʻra feʼllarning aspektual kategoriyalari ajratildi [1, 2, 8]. Ular umumiy tarzda feʼllarni holat feʼllari (states), faoliyat-jarayon feʼllari (processes), natijaga yoʻnaltiruvchi feʼllar (accomplishments) va jarayonning oxirgi natijasini ifodalovchi feʼllar (achievements)ga ajratadilar.

Oʻzbek tilshunosligida feʼl semantikasi va uning maʼnoviy guruhlariga bagʻishlangan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. I.Qoʻchqortoyev, R.Rasulov, T.Musayev, M.Mirtojiyev, S.Muxamedova, Y.Hamrayeva kabi olimlarning ishlari bu borada alohida ahamiyatga ega. Feʼlning grammatik xususiyatlarini tadqiq qilgan olimlar tomonidan ham zamon maʼnosining ifodalanishida feʼl leksik maʼnosining taʼsirga ega ekanligi taʼkidlab kelinsa-da, aynan qaysi feʼllarning qanday taʼsirga ega ekanligi maxsus oʻrganilmagan. Xususan, feʼl zamonlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ham bu masalaga alohida eʼtibor qaratilmagan. Faqat hozirgi zamon doirasida *yotmoq, yurmoq, turmoq, oʻtirmoq* feʼllarining –(i)b shakli bilan oʻziga xos tarzda shaklan oʻtgan zamon, mazmunan hozirgi zamonni ifodalashi masalasiga bir qator manbalarda toʻxtalangan. Ayniqsa, A.Hojiyevning bu boradagi qarashlari alohida ahamiyatga molik [4]. J.Joʻrayeva kelasi zamon feʼllari doirasidagi tadqiqotida “Baʼzi hollarda feʼl zamonini aniqlash feʼlning leksik maʼnosiga ham bogʻliq” [6] ekanligini aytib oʻtadi. Shuningdek, Gʻ.Zikrillayev tomonidan -a (-y) shakli orqali hozirgi va kelasi zamonning ifodalanishida kursiv va terminativ feʼllarning farqlanishi ham diqqatga sazovor. Olim: “Kursiv feʼlning lugʻaviy mazmunida hozirgi zamon maʼnosi uchun qulaylik boʻladi” [14], deya *tabriklayman, bilaman* kabi feʼllar ishtirokidagi gaplarni misol sifatida keltiradi. Oʻz navbatida “Terminativ feʼlning lugʻaviy mazmunida kelasi zamon maʼnosi uchun qulaylik boʻladi” [14], deydi va misol tariqasida *ketaman, boraman* feʼllarini keltirib oʻtadi. Taʼkidlash joizki, olimning bu qarashlari feʼl lugʻaviy maʼnosining zamon shakllarini qabul qilishga taʼsirini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega.

Ingliz va oʻzbek tillaridagi feʼllarning leksik-grammatik bogʻliqlikka asoslangan tasniflarini qiyosiy oʻrgangan Sh.Jalolova “Harakatning vaqtda chegaralanganligiga koʻra feʼl turlari (har ikkala tilda mavjud): terminativ va noterminativ feʼllar. Feʼlning bu turlari har ikki tilda mavjud, lekin ingliz tili uchun u koʻproq grammatik ahamiyatga ega” [5] ekanligini aytib oʻtadi. Haqiqatan ham, ingliz tili

grammatikasida davomiylikni ifodalovchi *-ing* shaklini olmaydigan fe'llar masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbek tilida esa bu fe'llar kontekstga ko'ra davomiylikni ham ifodalab kela olganligi sababli tadqiqotchi tasnifning bu tildagi ahamiyatini pastroq baholaydi.

NATIJALAR

-a (y) shaklining annotatsiyasida uning hozirgi va kelasi zamon hosil qilishdagi omonimligini farqlashda ham fe'llarning leksik ma'nosi muhim ahamiyat kasb etadi. Holat, faoliyat ma'nosidagi fe'llar tarkibida bu shakl ko'pincha hozirgi zamoni anglatadi, harakat fe'llari tarkibida esa asosan kelasi zamoni hosil qiladi. Biroq -a (y) ning holat fe'llarida hozirgi zamoni anglatishini, harakat fe'llarida kelasi zamoni ifodalashini mutlaq qoida sifatida olish mumkin emas. Masalan, sevmok, yoqmoq, bilmoq, tushunmoq, anglamoq, ifodalamoq, yaxshi ko'rmoq, yomon ko'rmoq, ishonmoq, nafratlanmoq holat fe'llari -a (-y) zamon shakli bilan umumiy hozirgi zamoni anglatadi. Biroq xursand bo'lmoq, xafa bo'lmoq, odatlanmoq, ko'nikmoq, to'xtamoq, pasaymoq kabi holat fe'llarida -a (-y) shakli fe'llarning xususiy ma'nolaridan kelib chiqqan holda ko'proq kelasi zamon ma'nosini anglatadi. O'zbek tilining ta'limiy korpusi (www.uzschoolcorpora.uz) matnlarida ushbu fe'llardan ayrimlarining -a (-y) shakli bilan zamon ma'nosini ifodalashining statistikasi 1-jadvalda aks etgan.

1-jadval

T/r	Holat fe'li	-a (-y) shakli bilan hozirgi zamon ma'nosida		-a (-y) shakli bilan kelasi zamon ma'nosida	
		Soni	Foiz hisobida	Soni	Foiz hisobida
1	Sevmok	581	100%	-	0%
2	Bilmoq	13473	99,6%	58	0,4%
3	Anglamoq	522	97,5%	13	2,5%
4	Ishonmoq	4259	99,8%	5	0,2%
5	Nafratlanmoq	71	100%	-	0%
6	Zerikmoq	24	92%	2	8%
7	Xursand bo'lmoq	235	62%	146	38%
8	Odatlanmoq	-	0%	24	100%
9	Xohlamoq	2491	100%	-	0%
10	O'chmoq	158	90%	17	10%

O‘zbek tilida hozirgi davomli zamon shakllarini qabul qilish-qilmasligiga ko‘ra fe’llarning ma’lum bir ma’noviy guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin emas. Biroq ayrim fe’llar leksik xususiyatlaridan kelib chiqib bu shakllarni qabul qila olmasligi mumkin. Masalan, *sevmoq* fe’li hozirgi davomli zamon shakllarini qabul qilmaydi, ya’ni *sevyapman, sevmoqdasan, sevayotibdi* tarzida ishlatilmaydi. Ta’limiy korpus matnlarida ham biror o‘rinda bu zamon shakllari bilan qo‘llanmaydi.

topmoq, yo‘qotmoq, payqamoq, qoqilmoq (o‘zlik nisbatda), chertmoq, uyg‘onmoq, tanimoq, chaqmoq, sinmoq kabi fe’llar davomiylikka ega bo‘lmagan, zamon o‘qida muayyan bir nuqtani ko‘rsatuvchi, qisqa lahzalik harakat-holatlarni ifodalaganda mantiqan hozirgi davomli zamoni anglatmaydi va davomli zamon shakllari bilan qo‘llanmaydi. Biroq ko‘p ma’noli fe’llar bir ma’nosi bilan hozirgi davomli zamon shaklini qabul qilmagani holda boshqa ma’nosi bilan bu shakllarni olaverishi mumkin. Alohida qayd etish joizki, yuqorida keltirilgan fe’llar bo‘lishsizlik shaklida qo‘llanganda qisqa lahzalik, oniy harakat ma’nosi yo‘qoladi va davomiylikka ega bo‘ladi. Shu bois ular bo‘lishsizlik shakli bilan hozirgi davomli zamon shakllarini qabul qilishi mumkin. Masalan: *O‘zimizda ham savodli mutaxassislar juda ko‘p, ularni hech kim payqamayapti.* (kun.uz)

MUHOKAMA

Topmoq fe’li “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi “1 Yo‘qotgan, umuman, qidirilayotgan (qidiruvda bo‘lgan) narsa yoki shaxsni duch keltirmoq, ko‘zga ilintirmoq, uchratmoq. 2 Nogahon ko‘zi tushib qo‘lga kiritmoq, topib olmoq” [17] ma’nolari bilan davomli zamonda ishlatilmaydi. Lekin lug‘atdagi “3 Qidirish, kuzatish, izlanish natijasida kashf etmoq, ochmoq. 4 Noma’lum bo‘lgan narsani aniqlamoq, nima ekanini belgilamoq, tayin etmoq. 5 Umuman, ish-mehnat, biror sabab va sh.k. bilan ega bo‘lmoq, erishmoq” [17] ma’nolari bilan davomli zamon shakllarini qabul qilaveradi. Jumladan, Ta’limiy korpus matnlarida *topmoq* fe’li hozirgi davomli zamon shakllari bilan 839 o‘rinda qo‘llangan va ularning barchasida izohli lug‘atdagi 3-, 4-, 5-ma’nolardan birini ifodalagan. Masalan: *Ijtimoiy tarmoqlar orqali hokimlik va boshqaruv idoralariga yo‘llanayotgan murojaatlari o‘z yechimini topyaptimi?* (xs.uz).

Yo‘qotmoq fe’li izohli lug‘atdagi “1 Yo‘q qilmoq. 2 Muayyan maqsadga monelik qiladigan to‘siqni olib tashlamoq; barham bermoq” [15] ma’nolari bilan davomli zamon shakllarini qabul qilaveradi, biroq “3 Ixtiyorsiz holda tegishli narsasini yo‘q qilmoq, nazar-e’tiboridan qochirmoq” [15] ma’nosi bilan davomli zamonda qo‘llana olmaydi.

Chertmoq fe'li "1 Barmoq bilan keskin zarb bermoq, barmoq bilan urib, past, keskin ovoz chiqarmoq, taqillatmoq. 2 Chertmak bilan itqitmoq, uloqtirmoq. 3 Barmoq yoki barmoqlar bilan zarb berib chalmoq" [17] ma'nolaridan 2-sida hozirgi davomli zamonda deyarli qo'llanmaydi. 1-, 3-ma'nolarda -yap, -moqda shakllari bilan qo'llanganda davomiylik emas, balki harakatning takroriyliigi ma'nosi anglashiladi. Bu chertishning oniy harakat ekanligi bilan bog'liq. Bu, ayniqsa, 3-ma'noda yaqqol ko'zga tashlanadi: *tor chertyapti*.

Uyg'onmoq fe'li "1 Uyqusini tark etmoq, uyqudan turmoq" [17] denotativ ma'nosida mantiqan hozirgi davomli zamoni anglatmaydi, ba'zida -yap shaklini olganda o'tgan zamon ma'nosini beradi, ammo "2 Hayot, faoliyatga qo'zg'almoq, harakatga kelmoq; amalga kirmoq. 3 Paydo bo'lmoq, hosil bo'lmoq, qo'zg'almoq (his, tuyg'u va sh.k. haqida)" [17] ma'nolarida hozirgi davomli zamonda ham qo'llanaveradi. Bunda bevosita nutq momentidagi hodisani emas, balki umuman hozirgi kunlarda yuz berayotgan jarayonni ifodalaydi. Masalan: *Bu orqali boshqa o'quvchilarda musiqa san'atiga qiziqish uyg'onmoqda*. (*marifat.uz*)

Tanimoq fe'li "1 Tanish bo'lmoq, bilmoq" [16] ma'nosida hozirgi davomli zamon shaklini olganda konkret nutq momentidagi holatni emas, balki hozirgi kunlarda amalga oshayotgan umumiy jarayonni ifodalaydi. Masalan: *Xalqaro Press-klub orqali xalq vazirlarni taniyapti*. (*kun.uz*) Tanimoq "2 O'ziga tegishli yoki tanish kimsani, narsani ko'rinishidan yoki boshqa biror belgisidan bilmoq, ajratmoq" [16] ma'nosida -yap hozirgi davomli zamon shakli bilan qo'llanganda, fe'l semantikasiga bog'liq holda o'tgan zamon ma'nosi anglashiladi. Shu sababli bu o'rinlarda -yap shaklini -di bilan almashtirish mumkin. Masalan: *-Men, Bibiman! Taniyapsizmi? — dedim titrab*. (*kun.uz*)

Payqamoq fe'li har ikkala "1 Sezmoq, his qilmoq, bilmoq. 2 Ma'nosini anglamoq, uqmoq, tushunmoq; sezmoq" [16] ma'nolari bilan hozirgi davomli zamon shakllarini qabul qila olmaydi. Biroq ma'nodosh bo'lgani holda *sezmoq* fe'li bu zamon shakllarini qabul qilaveradi. Masalan: *Darsimga barcha o'quvchi birdek quloq solib, mavzuni oson tushunib olayotganini sezyapman*. (*marifat.uz*) Bizningcha, bu holat ikkala fe'l o'rtasidagi asosiy farqlardan biri *sezmoqning payqamoqqa* nisbatan davomiylikka ega ekanligi va *payqamoq* tasodifiy, lahzalik holatni ifodalashi bilan bog'liq.

Chaqmoq fe'li "3 Bir-biriga urib, surtib, olov chiqarmoq; yondirmoq" [17] ma'nosida o'zbek tilida asosan *gugurt chaqmoq* tarzida qo'llanadi va bu ham lahzalik harakat bo'lganligi bois hozirgi davomli zamonda qo'llanilish imkoniyati cheklangan. *Chaqmoq chaqyapti* gapida oniy holat ifodasi bo'lganligi bois -yap shakli o'tgan

zamon ma'nosini anglatadi. Chunki nutq momentida so'zlovchi nazarda tutgan chaqmoq chaqishi tugallangan bo'ladi. Bu o'rinda -di o'rnida -yap shaklini qo'llash orqali hodisaning nutq momentiga juda yaqinligi, shuningdek, uning takrori borligi ham nazarda tutiladi.

Qoqilmoq fe'li o'zlik nisbat shaklida denotativ "1 Yurayotib, oyog'i uchini biror narsaga urib olmoq va shuning natijasida munkimoq" [18] ma'nosida nutq momentidagi harakat-holat ifodasi uchun hozirgi davomli zamon shakllari bilan qo'llanmaydi. Biroq "2 Yanglishmoq, xat0 qilmoq; shu tarzda pand yemoq, nochor holatga tushmoq. 3 Biror narsadan, jihatdan qiyinchilik, muhtojlik sezmoq" [18] ko'chma ma'nolarida bu zamon shakllarini qabul qilishi mumkin. Masalan: *Har gal mavzuning shu joyiga kelganda qoqilyapsiz.*

Sinmoq fe'li "1 Parchalanmoq, maydalanmoq, bo'laklarga ajralmoq, uzilmoq. 2 Zarb yeb shikastlanmoq, parchalanmoq" [16] ma'nolarida qisqa lahzalik harakat-holatni ifodalagani uchun -yap, -(a)yotib, -(a)yotir, -moqda kabi grammatik shakllarni qabul qilish imkoniyati cheklangan. Biroq "4 Konkurensiyada raqobatda yengilmoq, bankrotlashmoq, xonavayron bo'lmoq. 5 Ma'naviy zarba olmoq. 6 Yengilmoq, mahv bo'lmoq" [16] ko'chma ma'nolarida yuqoridagi shakllar bilan qo'llanaveradi. Masalan: *Ko'p san'atkorlar "mast" bo'lib qolyapti, ana shundan sinyapti. (kun.uz)*

XULOSA

Umuman olganda, fe'llarning leksik ma'nosi ularning zamon shakllarini qabul qilishi va zamon ma'nosini anglatishida ikki jihatdan juda ahamiyatli hisoblanadi:

- 1) hozirgi davomli zamonda qo'llanish yoki qo'llanila olmaslik;
- 2) -a (y) shakli orqali hozirgi yoki kelasi zamonnini ifodalash.

Qolaversa, turli qo'llanishlarda fe'l semantikasining zamonga munosabatida, xususan, ko'p ma'noli fe'llarning ayrim ma'nolarining zamonga munosabatida o'ziga xosliklar mavjud. Biz bu maqolada ayrim fe'llarni semantik jihatdan zamonga munosabatini tahlil qildik. Biroq kelajakda fe'l semantikasining zamonga munosabatini monografik tarzda o'rganishga ehtiyoj bor va bu orqali har bir fe'l asosidagi harakat-holatning zamon o'qida o'rin egallashidagi o'ziga xosliklar aniqlanishi mumkin.

REFERENCES

1. Bach E. On time, tense and aspect. An essay in English metaphysics. – New York: Academic Press, 1981. – P. 63-81.

2. Dowty D. The Effects of Aspectual Class on the Temporal Structure of Discourse: Semantics or Pragmatics //Linguistics and Philosophy. – Swets and Zeitlinger, 1986. – P. 37-61.
3. Ҳамроева Ё. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари (харакат ва ҳолат тушунчасини ифдаловчи сўзлар мисолида): Филол.фан.номз. ... дисс. – Тошкент: 2010. – В. 129
4. Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 156-157.
5. Жалолова Ш. Феълларнинг лексик-грамматик боғлиқликка асосланган қиёсий таснифи//Тил ва адабиёт таълими, 2016. - №7. – Б.43
6. Жўраева Ж. Келаси замон феъллари.//Феъл замонлари. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 117.
7. Миртожиев М. Ўзбек тилида феъл валентликлари. – Тошкент: Университет, 2007. – Б. 94.
8. Moens M. and Steedman M. Temporal Ontology and Temporal Reference // Computational Linguistics. – June, 1988. – P. 15-28.
9. Мусаев Т. Ўзбек тилида сезги феъллари: Филол.фан.номз....дисс. – Тошкент, 1992. – Б. 134.
10. Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 52.
11. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 48.
12. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2001. – Б. 74.
13. Vendler Z. Linguistics in philosophy. (Verbs and times). - New-York: Cornell university press, 1967. -P. 97-121.
14. Зикриллаев Ғ. Рух ва тил. –Тошкент: Фан, 2018. – Б. 138.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.286.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.663.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 608
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.354.